

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN POYABZAL
CHARM BUYUMLARINI LOYIHALASH MODELLASHTIRISH
ASOSLARI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN POYABZAL CHARM BUYUMLARINI LOYIHALASH MODELLASHTIRISH ASOSLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Poyabzal ishlab chiqarish texnologiyasi fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

POYABZAL CHARM BUYUMLARINI LOYIHALASH MODELLASHTIRISH ASOSLARI

1. Charm buyumlarining konstruktiv tavsifi.
2. Charm-attorlik va charm buyumlarining konstruktiv tavsifi.
3. Poyabzal ichki shakli(qolipni)ni loyihalash
4. Poyabzal loyihalashni umumiy asoslari

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Charm buyumlarining konstruktiv tavsifi.	Poyabzallarning qiyofasi, detallarning tuzilishi, soni, shakli va o'lchamlari. Qo'llaniladigan materiallari, ularni biriktirishda qo'llaniladigan chok turlari. Poyabzal haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	26 ta
2	Charm-attorlik va charm buyumlarining konstruktiv tavsifi.	Ixtiyoriy o'lcham va shakldagi buyumlar detallarining soni, o'lchami. Biriktirish turlari, yopilish usullari, unga qo'llaniladigan materiallar o'ziga xos funksional xususiyatlarini bilishi.	2 ta
3	Poyabzal ichki shakli(qolipni)ni loyihalash	Poyabzal qoliplarining konstruktiv tavsifi. Qoliplarning texnologiyasi bo'yicha bo'linishi. Qoliplarni ishlab chaqarishda qo'llaniladigan materiallar. Tovon qismining ko'tarinkiligi va uni modillashtirishdagi ahamiyati, qolip indeksi, qolip loyihalashning umumiy asoslari haqida bilimlarga ega bo'lishi lozim.	6 ta
4	Poyabzal loyihalashni umumiy asoslari	Poyabzal detallarini loyihalashning umumiy asoslari. Poyabzal ustki, astar va oraliq astarni loyihalashning umumiy asoslari. Nushalash usullari.	6 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O.A.Haydarov, D.Z.Pazilova, N.B. Mirzayev. Charm buyumlarni konstruksiyalash 2022 yil.

2. D.Z.Pazilova Poyabzal aksesuarlarini loyihalah 2026 yil

3. A.Kamolov, A.A.Haydarov. Charm buyumlarni konstruksiyalash I qism 1990 yil.

4. S.Maqsudov Charm buyumlar texnologiyasi I jild 2004 yil "O'AJBNT" markazi,700078, Toshkent mustaqillik maydoni 5 uy

5. U.M.Maqsudova . Charm buyumlar texnologiyasi. 2015 yil "O'AJBNT" markazi.

6.S.Maqsudov Charm buyumlar texnologiyasi II jild 2004 yil 2004 yil O'AJBNT" markazi, 700078, Toshkent mustaqillik maydoni 5 uy

**Eslatma:* test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.